Qiziltepa tuman Axborot-kutubxona markazi Axborot-bibliografiya xizmati

Buxoro viloyatidagi “YETTI PIR” ziyoratgohlari

(KITOBXONGA ESDALIK)



Axborot-bibliografiya xizmati

tomonidan tayyorlandi.

Tuzuvchi: D.Hamroyeva

AZIZ KITOBXONLAR !

Kitobxonga esdalikda Qadim Buxoro shahridagi yetti pir ziyoratgohlari tarixi, ushbu muqaddas zaminda qo'nim topgan etti buyuk avliyo – pirlar qabrinilari va yo'l xaritasi keltirilgan.

Ziyoratgohlar - Xoja Abduholiq Gijduvoniy (Gijduvon), Xoja Orif Mohitobon Revgariy (Shofirkon), Xoja Mahmud Anjir Fagnaviy (Vobkent), Xoja Ali Rominatiy (Romitan), Xoja Muhammad Boboyi Samosiy (Romitan) va Xoja Muhammad Bahovuddin Naqshbandiy (Kogon). Bugungi kunga kelib, ziyorat turizmini ma'qul ko'ruvchilar aynan shu muqaddas qadamjolarga tashrif buyurishmoqda. Buxoroga dunyo xalqlari e'tiborining kuchayib borayotgani bu qadimiy makonda turizm industriyasini rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar mavjudligidan dalolat.

Ushbu esdalik keng kitobxonlar ommasi uchun mo'ljallangan.

Yetti pir.

Buxoro — tabarruk zamin. Azal-azaldan turli savdo yo'llari, madaniyat va sivilizatsiyalar chorrahasida joylashgan bu ko'hna go'shaning ohanrabosi, ko'rku tarovati insonni doimo o'ziga chorlab turadi.



Buxoroga yiliga dunyoning turli nuqtalaridan minglab sayyohlar keladi. Ular bu sharif zaminda tarix bilan yuzlashadilar. Insoniyatning asrlar osha yashab kelayotgan ezgu tutumlari, madaniyati va qadriyatlariga guvoh bo'lib, ularning mohiyatida yotgan umumbashariylik, boqiylik sirlarini anglashga urinadilar. Islom dini peshvolari, allomalari, aziz-avliyolari bosgan tuproqni, qo'llarining qaynoq tafti qolgan





masjidu minoralarni, ruhlari kezib yurgan manzillarni ziyorat qilishga oshiqadilar... Ko'hna vohaning “tashrif qog'ozi” Buxoroga dunyo xalqlari e'tiborining kuchayib borayotgani bu qadimiy makonda turizm industriyasini rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar mavjudligidan dalolat.

1. Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoniy Qadim Buxoro shahriga kelgan kishi ushbu muqaddas zaminda qonim topgan etti buyuk avliyo – pirlar qabrini ziyorat qilishi maqsadga muvofiq. Necha zamonlardan buyon bu anana davom etib kelmoqda.


Buning uchun Xoja Abduholiq Gijduvoniy (Gijduvon), Xoja Orif Mohitobon Revgariy (Shofirkon), Xoja Mahmud Anjir Fagnaviy (Vobkent), Xoja Ali Rominatiy (Romitan), Xoja Muhammad Boboyi Samosiy (Romitan) va Xoja Muhammad Bahovuddin Naqshbandiy (Kogon) qabrlari joylashgan maskanlar ketma-ketlikda ziyorat qilinadi. Bugungi kunga kelib, ziyorat turizmini maqul koruvchilar aynan shu muqaddas qadamjolarga tashrif buyurishmoqda.

ANUR TUR turoperatorligi ekspertlarining malum qilishicha, ziyorat Xoja Abduholiq Gijduvoniy (Gijduvon)ning qabridan boshlanadi.

Xoja Abduholiq Gijduvoniy hazratlari 1103 yili Gijduvonda tugilib, 1179 yilda vafot etgan. Xojagon tariqatining asoschisi hazrat Abduholiq avliyolarning sultoni va boshqa nomlar bilan sharaflangan. Xizr alayhissalom, Yusuf Hamadoniy, Imom Sadriddin, Niyoz Xorazmidan talim olgan. Gijduvoniyning otalari hazrat Imom Abduljamil asli rumlik bolib, Imom Molik (713-795) avlodlaridan. Manbalarda keltirilishicha, Gijduvoniy hazrati Naqshbandiyning ikkinchi manaviy ustozi bolib, Xojagon tariqatiga asos solgan. Ayni shu tariqat Naqshbandiy tomonidan takomillashtirilib, uning nomi bilan Naqshbandiya

nomi bilan atala boshlagan. Barchamizga malum “Dast bakor, dil bayor!”(“Qoling ishda, qalbing Allohda bolsin!”) shiori ham birinchi marta Abduholiq G`ijduvoniy tomonidan aytilgan.

Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoniy quddisa sirrihu – Xojai Jahon. 1103 yilda tug‘ilgan. Muborak xoklari Buxoro viloyatining G‘ijduvon shahri markazida.





2. Xoja Muhammad Orif ar-Revgariy quddisu sirrihu Xoja Orif Mohi- tobon nomi bilan ham mashhur bo‘lgan. Xoja Orif Buxoro viloyatining Shofirkon tumanidagi Revgar qishlogida tug‘ilgan, yuz yildan ziyod umr ko‘rib, 1259 yilda vafot etgan. Qabri Shofirkon markazida obod ziyoratgohga aylantirilgan.1996 yil Xoja Orif jomesi qurildi.

Naql etilishicha, Xoja Orif o‘rta bo‘yli, ochiq yuzli, katta ko‘zli, kamon qoshli, vujudidan mushku anbar hidi anqib turadigan zot bo‘lgan ekan.


Xoja Orif Hazrat Abdulxoliq G‘ijduvoniyning to‘rtinchi xalifasi hisoblanadi. Hazrati Maxdumi A’zam Dahbediyning “Maqomoti Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoniy” asarida naql qilinishicha, Hazrat Xizr alayhissalom hazrati Abdulxoliq

huzurlariga kelardilar. O‘sha choq hazratning hamma shogirdlarini uyqu bosardi. Suhbat tugab, Xizr alayhissalom ketganlaridan so‘ng shogirdlar beixtiyor uyqudan uyg‘onardi. Shogirdlar orasida eng yoshi bo‘lgan Xoja Muhammad ar-Revgariy Xizr alayhissalomning suhbatidan bahramand bo‘lay deb ko‘zlariga tuz sepdilar va og‘rikning qattiqligidan u kishiga uyqu g‘alaba qilolmadi. Suhbatdan bahramand bo‘ldilar. Bu holni ko‘rib Xizr alayhissalom dedilar: Siz orif bo‘lgaysiz, inshaolloh!” Xoja Xizr alayhissalom nafaslarining barakotidan butun dunyoga Xoja Orif nomi bilan mashhur bo‘ldilar. Xoja Orif ar-Revgariy “Orifnoma” kitobining muallifi. “Orifnoma” 1994 yil nashr etildi. “Orifnoma”da yozilganki, “Odob nek odamlar ziynatidur!.. Avliyolik alomati uchtadur: birinchisi – baland darajani egallaganda ham kamtar bo‘lmoq; ikkinchisi – sabru toqati yetguncha parhez qilmoq, uchinchisi – to kuchi yetguncha insof qilmoq. Ochlik – zohidlar, zikr – oriflar taomi”.

Afsus shud pmnuon Mouitoboi ba zeri xok,
Kiyakam siyaqpo‘sh, jigar resh, sina chok.
Tarix bauri reulatp o‘ justam az qalam:
Qutbi zamon va Orifi billoq zeri raqam.

Mazmuni: Afsuski, Mohitobon yer ostiga pinhon bo‘ldi. Qalamim qora kiyindi, jigarim tilindi, siynam chok bo‘ldi. Uning marhum bo‘lgan yili «Qutbi zamon va Orifi billoh zeri raham»dan chiqadi.Ushbu she’rning so‘nggi bayti «Qutbi zamon va Orifi billoh zeri raham»dan hijriy 634 yil, melodiy 1234 yil chiqadi. Ayrim manbalarda Xoja Orif ar Revgariyning marhum bo‘lgan yillari 1259 yil deb yozilgan.Ayni shu kunlarda Xoja Orif ar Revgariy majmua’larida obodonchilik ishlari olib borilmoqda.





3. Xoja Mahmud Anjir Fag‘naviy quddisu sirrihu Vobkent tumanidagi Anjir Fag‘ni qishlogida tug‘ilib, o‘sha yerda vafot qilgan. Bu qishloqning hozirgi nomi Anjirbog‘dir.

Xoja Mahmud Anjir Fag‘naviy ilmi qol va ilmi holni hazrati Xoja Orif Revgariydan o‘rgangan. Ali Safiyning “Rashahotu aynul hayot” kitobida yozilishicha, Xoja Ali ar-Romitaniy Xizr alayhissalomdan: “Shu asru ayyomda pir deb kimning etagidan tutsa buladi?” deb so‘raganida Xizr alayhissalom: “Shu asru ayyomning murshidi Xoja Mahmud Anjir Fag‘naviydir!” deganlar. Xizr alayhissalomning. tavsiyasiga muvofiq Xoja Ali ar-Romitaniy Xoja Mahmudga murid bo‘ladi. Xoja Mahmud Anjir Fag‘naviy qabrlari ustida yangi makbara, maqbara yonida hovuz va jome’ masjidi qurilib ushbu joy obod ziyoratgohga aylangan.





4. Xoja Ali Romitoniy quddisu sirrihu Xojai Azizon nomi bilan mashhur. Bu zoti sharif Romitonning Ko‘rgon qishlogida tug‘ilgan. Maqomati goyat oliy, karomati bisyor, kasblari to‘quvchi bo‘lgan. “Rashahot”da yozilishicha, 1310 yil, “Maqomati Shohi Naqshband”da ta’kidlanishi- cha, 1321 yilda vafot qilgan. Qabri Ko‘hna Urganchda, obod ziyoratgohdir.

Xoja Alining Romitondagi Qo‘rg‘on qishlog‘ida tabarruk qadamjolari bor. U yer obod qilinmoqda. Xoja Alining to‘rtta mashhur xalifalari bo‘lgan: Xoja Muhammad Kulohduz, Xoja Muhammad Xalloj, Xoja Muhammad Bovardiy, Xoja Muhammad Boboyi Samosiy.


Hoji Tesha bobo Naqshbandiyning aytishicha, Naqshbandxon ibn Sultonxon (1958 yil vafot qilgan) Xoja Ali ar-Rometani avlodi edi.

Xoja Ali Romitoniyning “Risolai Azizon” kitobi mashhur. Bu kitobni fors tilidan o‘zbek tiliga naqshbandiyshunos olima Gulchehra Navro‘zova tarjima qilib nashr ettirdi.Xoja Ali deganlarki, yer bu toifa (ya’ni so‘fiylar) ko‘zida bir dasturxon kabidur.

Rometaiga kel, Hasqa yetmoq istasang,
Rometanga kel, do‘stgsh tutmoq istasang.
Kel, boshingdin oyoq yasab, ayo do‘st,
Gar Azizon ruqin shod etmoq istasang.
Birov bilai supbat etding, har safar —
Qalbing gash bo‘ldi-yu suhbat — besamar.
Azizonning ruhi kechirmas seni,
Undaylar yonidan sochmasang agar.
Uya Olloukim tanu jonni yaratdi,
Har a’zoni bir xizmatda saratdi,
Tilda illat ko‘rdi-yu etdi tutsun,


5. Xoja Muxammad Boboyi Samosiy quddisa sirrihu.





1259 yil Rometanning Samos qishlog‘ida tug‘ilganlar. 1354 yil vafot qilganlar. Qabrlari Samos qishlog‘ida. Ayni shu kunlarda bu ziyorattoh juda obod qilinayotir. Boboyi Samosiyning kasblari dehqonchilik bo‘lgan. Hazratning karomatlari va nek xulqlari haqida «Maqomoti Amir Kulol», «M aqomoti Sh ohi Naqshband», «Tuhfat az zoirin» va boshqa manbalarda zikr qilingan. Naql qilinishicha, Xoja Muhammad Samosiy bir guruh muridlari bilan Buxoro yahinidagi Qasri Hinduvondan o‘tib ketayotganda: «Bu tuproqdan bir er isi kelmoqsa, shu zot barakotidin Qasri Hinduvon Qasri Orifonga aylangay», — debtilar. O‘sha paytda hali Hazrat Bahouddin tug‘ilmagan, balki onalarining qornida ekan. Bir necha vahtdan keyin esa: «Haligi erning isi ortiqroq bo‘libti», deydilar. Darhaqiqat, Hazrat Bahouddin tug‘ilgan ekanlar. Uch kunlik Bahoudsinni Boboyi Samosiy ma’naviy farzandlikka qabul qilib, Mir Kulolga Bahouddin tarbiyasi bilan shug‘ullanishni topshirdilar. «M aqomoti Mir Kulol»da naql qilinishicha, Samos qishlog‘ida ikki guruh orasida nizo chiqib, oxirida mushtlashibtilar. Natijada bir kishining tishi sinibti. Jabrlangan

tomon, tishimiz xunbahosini undirib olamiz, deb hokimga arz qilmoqchn bo‘libti. Shunda oradan bir kishi: «Boboyi Samosiy hazratlariga murojaat etaylik, u kishi ne desalar shuni qilaylik. Zero, u kishidan maspahat olmay hokimga borish gunoh bo‘lur»,— debti. Uning bu fikri hammaga ma’qul bo‘lgan ekan. Hazrat Boboyi Samosiy singan tishni olib M ir Kulolga beribtilar va: «Ey farzand, siz shunday bir ish qilingki, oradagi nizo yo‘qolsin!» — debtilar. Mir Kulol jabrdiyda og‘ziga tishni o‘rnatib, Olloh taolodan madad, pirlardan istioniyattilab, duo qilibti. Tish asli holiday bo‘lib qolibti. Bu holni mushohadaetib, ikki guruh bir-biri bilan yarashib, tavba sharafiga muyassar bo‘libti.





6. **<u>Sayyid Amir Kulol quddisu sirrihuning</u>** asli ismi Sayyid Amir Kalon bo‘lib, Buxoro yaqinidagi Suxor qishlog‘ida tug‘ilgan. Bu zot taxminan 1287 yillarda dunyoga kelgan. Kulolchilik bilan shug‘ullangani sababli Mir Kulol nomi bilan mashhur bo‘lgan. Mir Kulolning bir yuz o‘n to‘rtta avliyo bo‘lgan xalifasi bor edi. eng yetuklari Bahouddin Naqshband, Mavlono Orif Degaroniy, Shayx Yodgor Valiy, Shayx

Jamoliddin Dehai Osiyoi, Shayx Shamsiddin Kulol, Xoja Darzuniylardir.

“Maqomoti Amir Kulol”da naql qilinishicha, Hazrat Mir Kulol mujarrad (bo‘ydoqlik) davrida tengqurlari bilan bog‘da ittifoq bo‘lib, choponlarini yuvibtilar va birodarlariga aytibtiki, “Ey yoronlar, choponlarni paxsa devor ustiga yoymaylik, chunki u yerdagi tikanlarga ozor berilur. Zinhor daraxtlar shoxiga osmaylik, shoxlar egilib, jabr bulur. Zaminga ham tashlamaylik, o‘t-o‘lanlar xarob bo‘lur”. Bu gaplarni eshitib, ne qilarini bilmay qolgan birodarlar surabtiki: “Amir, siz choponingizni qanday qilib quritasiz?” Hazrat debti: “Men choponimni ustimga tashlab, oftobro‘yada o‘tiraman va shunday qilib quritaman. Ey yoronlar, agar paxsa devordan bir parcha uzilib erga tushsa yo daraxt shoxi sinsa, yo chorva yeydigan o‘tlarga zarar etsa, Xudovandga ne uzr bildirurmiz? Zinhor nomashru’ (shariatga zid) ishlar, kichik bo‘lsa ham qilmang. Chunki kichik gunoh takrorlanaversa, do‘zaxga olib borur. Payg‘ambar sollallohu alayhi vasallam istig‘for (kechirim so‘rash) bilan katta gunohlar kechiriladi, muttasil qilinaverilsa, kichik gunohlar ham kattaga aylanadi, deganlar”. Sobiq Ittifoq davrida Hazrat Mir Kulol jomesi yiqitildi, ziyoratgohi esa sho‘r bosgan, qarovsiz holga kelgan edi. Istiqlol yillarida Mir Kulol ziyoratgohida yangi jome masjid, mehmonxona, darvozaxona qurildi. 2007 yilda Sayid Mir Kulol qabri ustida mahobatli maqbara qad rostladi. Atrofida ulkan bog‘ barpo qilindi.





7. HAZRAT BAHOUDSIN NAQSHBAND

HAZRAT BAHOUDDIN NAQSH BAND — asli ismlari Muhammad ibn Muhammad Jaloliddin bo‘lib, Xojai Buzrug (ulug‘ Xoja), shohi Naqshband, Bahouddin nomlari bilan jahonga mashhur. Hazrat Bahouddin Buxoro yaqinidagi Qasri Hinduvonda

tug‘ilgan. Keyinchalik bu zoti sharif barakotidan Qasri Hinduvon Qasri Orifonga aylandi. Tug‘ilgan sanalari 1318 yil. Hazratning kasblari matoga nahsh solmoh edi. Hazrat Bahouddin Boboyi Samosiy, Sayid Mir Kulol, Qusam Shayx, Xalil Ota, Orif Deggaroniy, Bahoudsin Qishlohiylardan saboh olganlar. Tarihat odobini, ilmini Hazrat Bahouddin Sayid Mir Kuloldan o‘rgandilar. Lekin hahihat yuzasidan Hazrat Bahouddin uvaysiy bo‘lib, Xoja Abdulxolih G‘ijduvoniy ruhlaridan ta’lim olganlar. «Tuhfatul ansob» kitobida Bahoudsin nasablari haqida ma’lumot berilgan: Hazrat Bahoul hah vad din Sayid Muhammad ibn Sayid Muhammad Jaloliddin Buxoriy ibn Sayvd Burhonvddin ibn Sayvd Sha’bon ibn Sayvd Abdulloh ibn Sayvd Zaynulobiddin ibn Sayvd Sh a’bon ibn Sayvd Burhon ibn Sayvd Mahmud Rumiy ibn Sayvd Ishoh ibn Sayvd Tahi ibn Sayvd Mahmud Jome ibn Sayvd Ali

Akbar ibn Hazrat Imom Ali Tahi ibn Imom Muhammad Tahi ibn Hazrat Imom Ali Muso ar Rizo ibn Zaynulobvddin ibn Husayn ibn Ali ibn Abu Tolib. Hazrat Bahouddin ona tomonvdan siddihiydurlar, ya’ni nasablari Abu Bakr Siddihha borib tahaladi.Hazrat Bahouddin «Hayotnoma», «Dalelul oshihin», «Avrod» nomli kitoblar va quyidagi ruboiylar muallifi hisoblanadilar:

Na maro mafrashu, na mafrashkash,
Na gulomonu turku turkashkash.
Hama shab chun sagoni qahdoni
Sar ba dum ovarem bixusbem xush.

Tarjimasi:

Na bizda bo‘yravu buyrakash bor,
Na gulomi turku va na xizmatkor.
Somonxona ntadek dum ostiga
Har kech bosh qo‘yib yotamiz bedor.

Hechi mo neyu hechi mo kam ne,
Az nayi yech hech mo gam ne.
Janda dar puit u nusht go‘riston,
Gar mirem me hech motam ne.

Tarjimasi:

Hech narsamiz yo‘gu hech narsa ham kam emas,
Hech narsaning yo‘sligi bizga vale g'am emas.
Jandamiz yelkamizda, ortimizda go‘riston,
Agar o‘lsak nogauon bizga hech motam emas.

«Maqomoti Shohi Naqshband» kitobida qayd qilinganki, Sultonul Orifin (ya’ni Boyazid Bastomiy) aytibdurlarki, bu yo‘lga kirganlar har hancha yurgan bilan alarning oxirgi hadami bizning birinchi qadamimizga yetur.Xojamiz (ya’ni Bahouddin) buyuribtilarki, g‘ayrat yuzasidan H aq taolo suhbati harom bo‘lsin u kish igakim, uning birinchi hadami

Boyazidning oxirgi hadamiga yetmasa va yana dedilarki, biz intihoni ibtidoda darj ayladik.Nahl qilishlaricha, bir kun Shayx Xisrav Hazrat Bahouddin huzurlarida niyozmandlik ila arz qildiki, Haromkom suvi goh-goh toshib, Karmana arig‘i hirg‘ohlarini yuvib,atrof-javonibni xarob etadi. Shu sabab yana bir arih hazish zarurati bor. Xalh ko‘p tashvish chekmohda.Hazrat Bahouddin buyurdilarki, bundan so‘ng Haromkomsuvi toshib, Karmana arig‘ini buzmaydi va bo‘ridan odamlarga zarar yetmaydi, yo‘lovchilar bemalol borib keladigan bo‘ladilar.Hazrat tillaridan bu muborak suxan aytilgan zahot podshoh farmon chiharibtiki, Karmana yo‘li qo‘riqlansin, toki yo‘lovchilarga biror maxluqning zarari tegmasin. Ajabki, Haromkom suvi ham toshmaydigan bo‘libti.Hazrat Bahouddin Naqshband dedilar: «Bizning tariqatimiz «urvatul vusqo» — mustahkam tutqich. Mustahkam tut-qich, bu — Qur’oni Karim hisoblanadi. Na1u1 qilurlarki, Hazrat Bahouddin ko‘chada bir darvishni ko‘rdilar. U quyidagi baytni o‘qirdi:

Nekuvonro do‘st dorad har ki boshad dar jaqon,
Gar badonro do‘st dori go‘y burdi az miyon.
Mazmuni: Yaxshi kishilarni hamma ham do‘st tutadi, lekin agar sen yomon kishilarni do‘st hilsang (ya’ni ularni o‘zingga yahinlanggirib, yaxshi yo‘lga boshlay olsang) yutuq egasi bo‘lasan. Hazrat Bahouddin dedilarki: «Men uchun bu bayt saboh bo‘ldi va barcha darvishlarga mazkur baytni yodlamohni buyurdim». Hazrat Bahouddinning birinchi xalifalari Hazrat Alouddin Attor, ikkinchi xalifalari H azrat Xoja Porso, uchinchi xalifalari Hazrat Alouddin G‘ijduvoniy edilar. Shayx Pirmasgiy, Xoja Abulqosim Buxoriy Hazrat Bahouddining ashoblaridurlar.Hazrat Bahouddin ikki farzand ko‘rganlar. O‘g‘illari yoshlikda vafot qilgan, qizlarini esa Alouddin Attorga nikohlab berganlar. Hazrat Hasan Attor — ular

valiyulloh bo‘lib, Bahoudsinning nevaralari hisoblanadi. Alouddin Attor va Hasan Attorlarning qabrlari Denavdadir. Hazrat Bahouddin vafotlaridan bir kun oldin muridlarining hammasini Xoja Muhammad Porsoga tobe bo‘lishini vasiyat qilgan. 1389 yil Bahouddin Qasri Orifonda vafot hildilar. Juda ko‘p shoirlar Hazrat vafotlariga atab tarix bitgan, lekin eng mashhuri mana budir:

Raft shohi Naqshbandon Xojai dunyovu din,
Osh ki budi shoqi rohu dinu davlat milchatash.
Maskanu ma’voi o‘ chun bud Qasri Orifon,
«Qasri irfon» z-in sabab omad qisobi reqlatash.

Mazmuni: dunyo va dinning Xojasi Shohi Naqshband vafot qildi, u dinu davlatning shohi erdi. Uning maskanu ma’vosi Qasri Orifok bo‘lgan. Shu sabab vafot etish tarixi «Qasri irfon»dan chiqadi. «Qasri irfon»dan abjad hisobida 791 yil hosil bo‘ladi, bu melodiy 1389 yilga to‘g‘ri keladi. Hazrat Bahouddin habrlari ustidagi daxma va ushbu ziyoratgohdagi xonahohni Abdulazizxon ibn Ubaydulloxon 1544yilda hurdirgan. Maqbara atrofida masjid, hovuz, quduq, minora, darvozaxona bor.Hukumatimizning sa’y-harakati bilan 2003 yil Hazrat Bahoudsin ziyoratgohlari yanada obod, fayzli etildi.Buxoro shahridan to ushbu ziyoratgohgacha boradigan yo‘l jahon andozasiga mos hilib bino etilgani tahsinga loyih.Hazrat Bahouddin ziyoratgohlarida ulkan majmu’a had rostladi. Bunday keng ko‘lamdagi obodonchilik ishlari biror asru ayyomda hilingan emas. Qadimgi darvozalar— Xoja Dilovar, Bobus Salom asl holiga keltirildi. Ziyoratgohning janubida ulkan gumbazli darvozaxona hurildi. Hazratning habrlari sharhi va janubida ulkan va go‘zal ayvon tiklandi. Bu

yangi ayvon hadimgi ayvonga g‘oyat mutanosibdir. Xonahoh, masjidlar, madrasa binolari sidhidildan ta’mirlandi.

Hazrat Bahouddin Nahshband ziyoratgohlari bilan onalari — Orifabibi ziyoratgohlari bir majmuaga aylantirilgan. Orada bog‘, gulzor barpo bo‘lgan.

Hazrat Bahouddin muzeylaridagi eksponatlar ham yangilanib, bu yerga kirgan kishi tasavvuf, Yetti Pir hahlarida yaxlit bir tushunchaga ega bo‘ladi. Toshkent, Samarhand, Xorazm, Qo‘hon va boshha viloyatlardan kelgan ho‘li gul ustalar ixlos bilan, e’tihod bilan ushbu majmuada xizmat hildilar. Bir so‘z bilan aytganda, XVI asr obidasi harama-harshisida, unga uyg‘un holda XXI asr obidasi qad rostladi. Mashoyixlar: «Ming eshitgandan bir ko‘rgan afzal» deganlar. Ushbu majmuani ta’rif-tavsiflashga halam ojiz. Kelgan odam ko‘radi va hoyil bo‘ladi. Hazrat Bahouddinning ulug‘ nomlariga munosib ziyoratgoh barpo etilgandir.Darhaqihat, «Har qanday obodlik ko‘ngildan boshlanadi» (I.A.Karimov), to ko‘ngil obod bo‘lmasa, bunday hashamatli, bunday ko‘rkam, bunday salobatli, bunday fayzli majmuani bino qilib bo‘lmaydi. Hazrat Bahoudsin majmualarini ziyorat hilayotganingizda o‘tgan ulug‘larimizning quyidagi qalb so‘zlari hulog‘ingizga eshitilsa, aslo ajablanmang:

Bizni yodga olganni — Olloh yodga olgaydur,

Alarning yuragiga Ollou tavfiq solgaydur.

Bizni ezozlaganni Ollou e’zozlar beshak,

Azizlarning yodida alar nomi qolgaydur.

Bizni yodga olganning zamoni obod bo‘lgay,

Makoni obod bo‘lgay, jaqoni obod bo‘lgay.

Ne zksa o‘rib olgay o‘shani odam, beshak,

Bizni yodga olganning xirmoni obod bo‘lgay!

* * *

Kim seni yor ztdi, yor bo‘ldi oqibat,

Kim seni zor etdi, zor bo‘ldi oqibat!

Ey Buxoro! Bu ne hikmatdur, ajab —

Kim seni xor etdi, xor bo‘ldi osibat!





FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.http://old.muslim.uz/index.php/maqolalar/item/2820-adim-bukhoroda-jotgan-etti-pir

2.https://cyberleninka.ru/article/n/buhoro-tabarruk-ziyoratgo-lar-makoni-1